

JADID ADABIYOTIDA MILLIY UYG'ONISH G'OYASI ABDULLA AVLONIY ASARLARI MISOLIDA

Azimova Muniraxon Akmaljon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali IT
va Ijtimoiy-Gumanitar fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili
yo'nalishi 25-04-guruh talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotida milliy uyg'onish g'oyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Avloniy ijodi misolida ma'rifatparvarlik, milliy o'zlikni anglash, tarbiya va Vatan ravnaqi masalalari yoritiladi. Jadidvhilik harakatining tarixiy sharoiti, uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati hamda adabiyot orqali xalq ongini uyg'otishdagi o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Muallif Avloniy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini asoslaydi milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning muhim omili ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyoti, milliy uyg'onish, Abdulla Avloniy, ma'rifat, milliy o'zlik, tarbiya, Vatan g'oyasi.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the idea of national awakening in Jadid literature. In particular, it examines the works of Abdulla Avloniy, highlighting themes of enlightenment, understanding of national identity, education, and the prosperity of the homeland. The historical context of the Jadid movement, its socio-cultural significance, and its role in awakening public consciousness through literature are explored. The study demonstrates that the ideas presented in Avloniy's works remain relevant today. The research concludes that Jadid literature plays a significant role in national progress and spiritual development.

Keywords: Jadid literature, national awakening, Abdulla Avloniy, enlightenment, national identity, education, homeland.

Аннотация: В данной статье анализируется художественное осмысление идеи национального возрождения в джадидской литературе. В частности, рассматривается творчество Abdulla Avloniy, в котором освещаются темы просвещения, осознания национальной идентичности, воспитания и процветания Родины. Исторический контекст джадидского движения, его социально-культурное значение, а также роль литературы в пробуждении демонстрируется, что идеи, изложенные в произведениях Авлония, сохраняют свою актуальность и в наше время. В результате исследования делается вывод, что джадидская литература является важным фактором национального прогресса и духовного развития.

Ключевые слова: Джадидская литература, национальное возрождение, Абдулла Авлоний, просвещение, национальная идентичность, воспитание, Родина.

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida muhim burilish davri boshlamdi. Bu davr milliy ongning uyg'onishi, xalqni jaholatdan qutqarish va ma'rifat sari yetaklash g'oyalari bilan xarakterlanadi. Ana shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadid adabiyoti millat taqdirini, uning kelajagini o'ylagan fidoyi ziyolilar ijodi sifatida maydonga chiqdi.

Jadid adabiyotining asosiy maqsadi xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, milliy o'zlikni anglashga undash edi. Bu jarayonda Abdulla Avloniy alohida o'rin egallaydi. Uning asarlarida Vatan, millat, tarbiya va ma'rifat masalalari markaziy mavzu sifatida talqin qilinadi. Avloniy ijodi milliy uyg'onish g'oyasining badiiy ifodasidir.

Jadid adabiyoti milliy uyg'onish g'oyasini nafaqat esse yoki maqolalar orqali, balki she'riyat orqali ham targ'ib qilgan. Shu jihatdan Abdulla Avloniy she'rlari alohida ahamiyatga ega. Quyida Avloniy she'ridan bir misol keltiriladi:

VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas-aqli pastdur.
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.
Yering, suving bizni boqub to'ydiradi,
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum-mevalaring,
Ot-u ho'kuz, echki, taka,tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne'mat parchalari.
Sendan tug'ub, katta bo'lur, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurg'on xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,
Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzik so'yla!
Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,
Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.
Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,
Yemush berib, yem o'rniga yem olmaduk.
Bilolmaduk ko'ksingdagi xazinani,
Biz bilmasmiz tosh-taroz-u, mazinani,
Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botub,

Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.
Seni sotub pul qilurmiz-ketur-qolur,
Bir yildan so'ng bahong iki bo'lub olur.
Tarbiyatsiz, ilmsizlik jazosidur,
Jaholatning boshga solgan azosidur.
Selobi g'am kelmas burun jadal birlan,
Tu(v)g'onini to'xtatmaganbo'lur Hijron.

Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi. Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevish kerak.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida hunarmand-to'quvchi oilasida tug'ildi. U yetti yoshida O'qchi mahallasidagi boshlang'ich maktabga o'qishga bordi, uni 1890-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil oldi. Keyinroq tahsilni Shayxontohurdagi madrasada davom ettirdi. Qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikorlik bilan mashg'ul bo'ldi. Yosh Abdullada she'r yozishga ishtiyoq o'n besh-o'n olti yoshlarida paydo bo'ldi.

Abdulla Avloniyning ilk she'riy mashqlari 1894- yilda bitilgan. U 1905-yildan boshlab o'z mashqlari bilan matbuot sahifalarida qatnasha boshladi. Abdulla Avloniy biroz muddat- 1905-1908-yillarda "gazetachilik" bilan shug'ullandi. 1906-yilda chiqadi boshlagan "Taraqqiy", "Xurshid" gazetalarida ishladi, ular yopilgach, "Shuhrat" gazetasini chiqarishda bosh-qosh bo'ldi. 1907-yil 4-dekabrda Avloniy muharrirligida bu gazetaning birinchi soni bosmadan chiqdi. Ma'rifatparvar shoir uni o'z uyida-hozirgi Mirobod tumanida tayyorlab, chop etdi.

Bu juda mashaqqatli ish edi.

Abdulla Avloniy ma'rifat yo'lida har qanday mehnat va mashaqqatni yengib o'tgan bobolarimizdan biri. Keyinchalik u Mirobod mahallasida maktabdorlik bilan shug'ullana boshladi. Avloniy ochgan maktab o'z davrining yangi usuldagi ilg'or maktablaridan biri edi.

Abdulla Avloniy 1909-yilda "Jamiyati xayriya" tashkilotini ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib, bilim olishiga ko'maklashish maqsadida pul yig'ib, maktablarga tarqatdi. 1913-yilda "Turon" jamiyatini ochdi. Uning vazifasi aholi o'rtasida sahna ishlariga qiziqish uyg'otish, xalq uchun spektakillar qo'yib berish va ular orqali ommaga ma'naviy oziq berish ; klub, musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxonalar ochish; o'quvchilarga moddiy yordam ko'rsatish va hokazolardan iborat edi.

A.Avloniy jamiyat qoshida "Turon" nomli teatrni ham tashkil etdi. O'zining e'tiroficha, o'ntaga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbekchaga tarjima qildi, 3 ta yangi pyesa yozdi va ularni sahnalashtirdi.

Abdulla Avloniy xalqni ma'rifatga undashning o'zi kifoya emasligini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham u yangi uslub maktabini ochib, bu maktabda o'zi bolalarni o'qitadi. Shu maktab uchun "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1916), shuningdek, olti qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916) singari darsliklar, alifbo va o'qish kitoblarini yozdi.

Ushbu kitoblar bolalar Yoshi va saviyasiga mosligi, o'quvchilarni tezroq savodxon qilishga yo'naltirilganligi bilan zamonasining boshqa ta'limiy kitoblaridan ajralib turadi. Keyinchalik ushbu kitoblar Toshkentdagi barcha yangi usul maktablari uchun qayta-qayta nashr qilindi.

A.Avloniy 1919-1920-yillarda diplomatik vazifalarda ishladi. So'ng umrining oxirigacha O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)da dars berdi.

Axloqiy-ta'limiy asarlar, darsliklar yozib, milliy uyg'onish adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy ijodi bugun ham ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Adib jamiyat va davlat taraqqiyoti, insonlarning kelajagi uchun tarbiya muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlab, shunday deydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot -yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir".

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid adabiyoti milliy uyg'onish g'oyasini shakllantirishda muhim vosita bo'lgan. Abdulla Avloniy ijodida millat, Vatan, ma'rifat va tarbiya masalalari markaziy mavzu sifatida talqin qilingan. Avloniy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar zahirida xalq ongini yuksaltirish, ilm-ma'rifatga chorlash va milliy o'zlikni anglash kabi asosiy tamoyillar mujassam. Shu bilan birga, jadid adabiyoti bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab, yosh avlodni ma'naviy rivojlantirish va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Avloniy ijodi va jadid adabiyoti umuman olganda, o'zbek millatining ma'naviy uyg'onish va taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar.

Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.

2. Qodiriy, Abdulla. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 1998.

3. Sobirov, S. Jadid adabiyoti va milliy uyg'onish. Toshkent: Sharq, 2010.
4. Karimov, O. O'zbek she'riyati va milliy ma'rifat. Toshkent: Fan, 2005.
5. Saussure, Ferdinand de. Course in General Linguistics. New York: Philosophical Library, 1959.